

ISAJON SULTONNING “BIBI SALIMA” HIKOYASIDA AXLOQIY MA’NAVIY MASALALAR TALQINI

Nizomova Ismigul Zarif qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 3-kurs talabasi
ismigulgull88@mail.com

Annotatsiya:

Zamonaviy o‘zbek nasrining yirik namoyondalaridan biri bo‘lgan yozuvchi- Isajon Sulton barchamiz uchun ma‘lum va mashhur shaxs hisoblanadi. Adib ijodini qamrab olgan va bugungi kitobxonlar uchun nashrga e‘lon qilingan: “Munojot”, “Oydinbuloq”, “Boqiy darbadar”, “Ozod”, “Bog‘i Eram” kabi kitoblaridan o‘rin olgan roman va hikoyalarida tasvirlangan mavzular o‘zining rang-barangligi, dolzarbligini, qolaversa, hayotiylik bilan diqqatga sazovordir. Ushbu maqolada yozuvchining “Bibi Salima” hikoyasi tahlilga olinadi va hikoyada ma‘naviyat masalasi xususidagi mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar:

o‘zbek nasri, Isajon Sulton, “Bibi Salima” hikoyasi, badiiyati va ma‘naviyat masalasi.

Annotation:

Isajon Sultan, one of the great figures of modern Uzbek prose, is a well-known and popular figure. Themes described in the novels and stories that cover the author's work and are published for today's readers: "Munojot", "Aydinbulak", "Boqiy darbadar", "Ozod", "Bogi Eram" are remarkable for its diversity, relevance, and vitality. This article analyzes the author's story "Bibi Salima" and discusses the issue of spirituality in the story.

Keywords:

Uzbek prose, Isajon Sultan, Bibi Salima story, art and spirituality

“Bu dunyoda insonlarning dardu tashvishlarini o‘ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir”[1.Mirziyoyev Sh. “Buyuk kelajagimizni mard va buyuk xalqimiz bilan birga quramiz”, 17-bet]. Bugungi zamonaviy adabiyotimiz rivojiga o‘zining salmoqli ijodi bilan munosib hissa qo‘shib kelayotgan, adabiy jarayonda o‘zining shaxsiy “Men” ligini ko‘rsatayotgan adiblar talaygina. Normurod Norqobilov, Xurshid Do‘stmuhammad, Ahmad A‘zam, Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam, Luqmon Bo‘rixon, Isajon Sulton, Zulfiya Qurolboy qizi singari ijodkorlarning o‘ziga xos yo‘sinda yaratgan asarlari milliy nasr taraqqiyotini belgilab bermoqda. Milliy istiqlol nasriga o‘ziga xos uslub, yo‘nalish bilan kirib kelgan qator roman va hikoyalar muallifi Isajon Sulton ijodi alohida ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. “Keyingi yangi asr davomida shoir iborasi bilan aytganda “avvalgilarga o‘xshamas” zamonaviy jahon adabiyoti namoyandalari qatorida turishga loyiq yangi avlod qad rostladi, ularning nasriy, she‘riy bitiklari faqat diyorimizdagina emas, undan tashqarida ham katta qiziqish uyg‘otmoqda. Birgina misol: “Istiqlol davri adabiyoti” ruknida “Isajon Sulton nasri badiiyati” nomi ostida qirqdan ortiq xorijiy va o‘z yurtimiz yetuk munaqqidlarining Isajon Sulton ijodiga oid maqolalardan iborat qariyb 400 sahifali salmoqdor to‘plam chop etildi”. [2. Umarali Normatov. “Noyob tamoyillar, yangicha kuzatishlar”, “saviya uz”].

Adibning “Shamolli kecha”, “Qo‘riqchi”, “Ozor”, “Bog‘i Eram”, “Qismat”, “Ayriliq”, “Farishta” singari hikoyalari o‘z o‘quvchilarini topib ulgurgan hamda xalqaro mukofotga munosib deb topilgan. 2011-yili adibning “Qismat” hikoyasi AQSHning Chikago shahrida o‘tkazilgan xalqaro adabiy konkursda g‘olib deb topilishi bu nafaqat adibning, balki o‘zbek adabiyotining sezilarli yutug‘i bo‘lgan desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yozuvchi hikoyalarida ilgari surilgan fikrlar, qahramonlar ruhiyati o'z jozibasiga ega. Hikoyalarining asosiy mohiyati va tagzamirida insonni komillika yetaklovchi fazilatlar va insoniy tuyg'ularning uyg'unlashganini ko'ramiz. Adib qalamiga mansub "Bibi Salima" hikoyasi kitobxon his-tuyg'ulariga ta'sir eta olgan, kitobxonni mulohazaga chorlovchi, samimiyatga yo'g'rilgan o'zbek xalqining hayotidan olingan voqealarni tasvirlagan mo'jazgina asar hisoblanadi.[3. Isajon Sulton. "Hazrati Xizr izidan", 25-50-betlar]. Uzoq o'yga toldiradi va hayotning ma'no-mazmuni haqida mushohada qilishga undaydi. Hikoya tili sodda va xalqchilki, kitobxon mutolaa paytida qiyinchilik sezmaydi, Adib "Bibi Salima" da bir voqeani hikoya qilgandek taassurot uyg'otsa-da, ammo hikoyada insonning Haqqa, Borliqning mohiyatiga bo'lgan munosabatini tasvirlaydi. Hikoya qahramoni Bibi Salima umrini halol va pok yashashga sarflayotgan, halol mehnat qilib kun o'tkazadigan o'zbek ayoli. Hikoyani o'qish jarayonida shunga amin bo'lamizki, o'zbekning sodda bu ayoli musulmonchilik urf-odatlarini bilan ulg'aygan, to'rt farzandning onasi.

Tandirchi ishini bitirib, Bibi Salimaga qarab, "Duo qiling" deganida:

-Yo'g'e erkak kishi turganida men duo qilamanmi? - deb javob berishining o'zi millatimiz ayollariga xos bo'lgan iffat va or-nomusning yaqqol ko'rinishidir. Ming xil tashvish-u xayol bilan yuradigan qahramon har bir nojo'ya gapidan so'ng Allohga tavba qiladi. (Xotin kishiman-ku, har xil gaplarni gapiraveraman-da).(27-bet) Islom dinimizning muqaddas kitobi "Qur'oni karim"da har bir muammo uchun bir oyat bor degan gap o'z tasdig'ini topadi. "Tahrim" surasining sakkizinchi oyatini o'qiganimizda: **"Ey mo'minlar, Allohga xolis tavba qilinglar, shoyadki, Parvardigoringiz sizlarning yomonlik-gunohlaringizni o'chirib, ostidan daryolar oqib turadigan jannatlarga kiritur. U kunda Alloh Payg'ambarni va u bilan birga iymon keltirgan zotlarni sharmanda qilmas. Ularning nurlari oldilarida va o'ng tomonlarida (ularning yo'llarini yoritib) yurur. Ular Parvardigoro, o'zing bizlarga nurimizni komil qilgin va bizlarni mag'firat qilgin. Albatta sen barcha narsaga qodirsan" – derlar.** [4. Qur'oni karim. Izohli tarjima. 1992. 419-bet].

Bibi Salima diliga tukkan barcha orzu va umidlarini jamlab Yaratganga duo qiladi. Eriga shifo, uyida ochlik hukm surayotgan paytda bolalariga rizq va nasiba, ro'zg'origa baraka so'raydi.

"Qur'oni karim" ning "Saba" surasining yigirma to'rtinchi oyatida: "(Ey Muhammad alayhissalom, mushriklarga) ayting: **"Kim sizlarga osmonlardan va yerdan rizq-u ro'z berur? Ayting: "Alloh (rizq berur). Shak-shubhasiz, yo bizlar, yo sizlar (ya'ni ikki toifadan biri) aniq hidoyat ustida yoki ochiq zalolatdadir (4; 297-bet).**

To'g'rilik, halollik, tejamkorlik va mehnatsevarlik kabi go'zal fazilatlar-u xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan qahramonimizda e'tiqod mustahkamligiga guvoh bo'lamiz. Chinakam insoniylikka xos bu fazilat kitobxonni befarq qoldirmaydi. "Qarang-a, niyatni xolis qilaverish kerak ekan-da. Tavba o'shanda o'zim uchun so'raganimda-yu Xudoyim bir bizgagina berganida nima bo'lardi? Qo'ni- qo'shning ko'ziga qanday qarardik"- deya xitobining o'zi Bibi Salimaning qalbi naqadar sof va samimiyatga limmo-lim ekanligidan darak beradi. (39-bet) Alloh bergan barcha ne'matlariga shukr qilib ertangi kunlarga bo'lgan ishonch mustahkamligi qahramonimiz dilida surur baxsh etadi.

"Qur'oni karim"ning "Ibrohim" surasining 7-oyatida: **Yana Parvardigoringiz bildirgan (bu so'zlarni) eslasangiz: "Qasamki, agar sizlar (bergan ne'matlarimga) shukr qilsangizlar, albatta, Men (ularni yanada) ziyoda qilurman. Endi agar kufroni (ne'mat) qilsangizlar, albatta, Mening azobim juda qattiqdir"** – degan oyatlar keltirilgan (168-bet).

Yozuvchi "Bibi Salima" hikoyasida dialoglardan foydalanmaydi. Qahramonning qiyofasini ichki monologlarda ochib berish orqali kitobxonga o'z niyatini yetkazishga harakat qiladi. Adib qahramonini shunchaki hayotga befarq, o'z dard-u hasrati bilan yashaydigan inson sifatida tasvirlashdan qochadi. Butun qo'ni-qo'shni, el-yurt va xalqning rizq-u barakasi, tinch-totuvligi haqida qayg'urib insoniyeligini barchamizga yuqtiradi.

Isajon Sulton hikoyalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, siz-u bizga tanish oddiy insonlar. Qahramonlarni oddiy xalq vakillaridan tanlaydi, qahramonlarga hech qanday vazifa yuklamaydi. Shuning uchun yozuvchining qaysi hikoyasini tahlilga olmaylik, avvalo, o'zbekona qadriyatlar, qishloqdagi soddalik hamda ma'naviyatni yuksaltiruvchi insoniy his-tuyg'ularga ahamiyat berilganiga guvoh bo'lamiz. Qahramonlar o'rtasidagi mehr-muhabbat, yaxshilik tilash va

yaxshilikka barchani sherik qilish hech zamonda eskirmaydigan tuyg'ulardir. Hikoyalar garchi, hajman kichik, mazmunan salmoqli bo'lsa-da, ular zamirida yashiringan, xalqimiz ma'naviyatini ko'zguga yaqqol ko'rsatib berishdek vazifani bajargan "Bibi Salima" va shunga o'xshash adibning boshqa hikoyalarining ko'pligi insonni quvontiradi.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" asarida ma'naviyatga quyidagicha ta'rif beradi: "Ma'naviyat-insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymon-etiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir" [5; 13].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Isajon Sultonning aksar hikoyalarida inson va uning ma'naviy bisoti, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, oilaparvarlik kabi fazilatlar o'zaro mujassamlashtirilib yakdil tarzda ochib beriladi va katta umumlashma mavzularni yoritishga turtki bo'ladi. Adabiyotning yuksak namunalari o'z davrining buyuk ruhiy yilnomalarigina bo'lib qolmay, eskirmas va nuramas tarbiya vositasi ham sanaladi. [6. Qozoqboy Yo'ldosh. "Badiiy tahlil asoslari", 34-bet)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH. "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz". T.: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.
2. Normatov U. "Noyob tamoyillar, yangicha kuzatishlar", www.saviya.uz
3. Isajon S. "Hazrati Xizr izidan". – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi. 2018. – 384 b
4. Qur'oni Karim. Izohli tarjima. Alouddin Mansur tarjimasi. T. "Sharq", 1992. – 496 b
5. Karimov. I. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch". T.: "Ma'naviyat". 2008. – 274 b.
6. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. "Badiiy tahlil asoslari". T.: "Kamalak". 2016. – 464 b.